



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

"Filologiya va pedagogika"
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi
364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil
5 (9)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI**

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА**

**PHILOLOGY AND
PEDAGOGY**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu son

Toshkent viloyati
toponimlari
lingvokulturema
sifatida

**21-
bet**

Markaziy Osiyo
mamlakatlari xalq
maqollarining tadqiqi,
ilmiy qiymati
va amaliy ahamiyati

**103-
bet**

Talabalarning bo'sh
vaqtini mazmunli o'tkazish:
tahlil va tavsiyalar

**114-
bet**

Изучение видов
русского глагола в
группах с узбекским
языком обучения

**126-
bet**



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

2025-yil
5 (9)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR

Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:

Emma Torosyan

Nargis Bobodjanova

Nargiza Sotvoldiyeva

Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI

Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri

Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefon: (55) 510-28-44,

(77) 358-57-67

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot

orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 25.05.2025 da

nashr etildi.

MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab

ta'limi vazirligi

"Til va adabiyot ta'limi"

davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TAHRIR HAY'ATI:

Hilola Umarova

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

tadqiqotchi-professori,

filologiya fanlari doktori

Baxtiyor Doniyorov

Toshkent axborot texnologiyalari

universiteti Nurafshon filiali

professori, filologiya fanlari doktori

Anatoliy Lixodzyevskiy

O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti professori,

filologiya fanlari doktori

Oksana Gibraltarskaya

O'zbekiston Milliy universiteti

professori, filologiya fanlari doktori

Ranusha Atayeva

O'zbekiston Respublikasi Jamoat

xavfsizligi universiteti katta

o'qituvchisi, filologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori

Mohichexra Boltayeva

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax

filiali dotsenti, pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori

Sherzod Atamuradov

filologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti professori,

pedagogika fanlari doktori

Gulnora Mansurova

Toshkent davlat iqtisodiyot

universiteti dotsenti,

falsafa fanlari doktori

Xadicha Muxitdinova

O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti professori,

pedagogika fanlari doktori

G'ofir Hamroyev

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

tadqiqotchi-professori,

pedagogika fanlari doktori

Sevara Ziyayeva

O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti dotsenti,

filologiya fanlari doktori

Indira Narkulova

O'zbekiston Respublikasi Jamoat

xavfsizligi universiteti katta

o'qituvchisi, pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Nigora Rasulova. O'zbek she'riyatida mulamma' va uning ilmiy-nazariy tasnifi.....	4
Maftuna Ro'zmetova. Fentezi janrida badiiy tasvir vositalarining tarjima uslublari	5
Matluba Olimova. Ingliz va o'zbek tillarida hayvon nomlarining lingvokulturologik tahlili	7
Aziza Shoyimova. Intertekstuallik hodisasining til nuqtayi nazardan o'rganilishi	9
Shoxida Irgasheva. Internet diskursidagi neologizmlarning pragmatik funksiyalari	10
Алие Белялова. Роман В.Г.Зебальда «Аустерлиц» в призме постмодернизма	13
Арзайым Ибрагимова. Фоностилистика как элемент создания стилистической окраски и эмоционального фона текста.....	14
Диёра Пулатова. Образы американских политиков в сатирических романах Кристофера Бакли.....	16
Лайло Суннатова. Структура и тенденции языковой адаптации английских заимствований в русском языке	19
Akmal Abdullayev. Toshkent viloyati toponimlari lingvokulturema sifatida	21
Nosirjon Uluqov. Geortonimlar onomastik mikroko'lami va geortonimik birliklar xususida	23
Bonu Po'latova. Kognitiv va diskursiv yondashuvning asosiy tamoyillari.....	27
Gulhayo Bo'riyeva. Amerikalik bolalar yozuvchisi Doktor Syuz asarlarining badiiyati	28
Nilufar Namazova. "Jonsiz devorlarning tilga kirishi" yoxud Turkistonda devoriy gazetalarning sotsializm qurilishidagi roli.....	30
Муниса Тошбоева. Лингвистические особенности узбекского политического дискурса	31
Отабек Усмонов, Мунира Икрамова. Лексическо-стилистические средства выражения оценочности в русском политическом дискурсе	34
Феруза Худайкулова. Второстепенные члены предложения	36
Манзура Исмоилова, Анна Шереметьева. О специфике словообразовательных макрогнезд в русском языке	38
Зайтуна Каипова. Лингвистический взгляд на древнерусскую одежду.....	40
Zuhra Mamadaliyeva. Ko'zgu obrazining Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi talqini	41
Zoir Taxirov. Matndagi asos materiallar aniqligi va ishonchligini tekshirish	42
Aziza Muminova. O'zbek tilida o'tgan zamon shakllari paradigmasi	43
Gulbahor Nasridinova. Omon Muxtorning "Muhabbat o'limdan kuchli" romanida qahramonlar tavsifi	46
Surayyo Do'stova. Bayoniy devoni qo'lyozmalarida lirik janrlar tarkibi	48
Surayyo Davronova. Hofiz Xorazmiy lirikasida badiiy san'atlarning qo'llanilishi.....	50
Madina Muhammadaliyeva. Hunarmandchilikka oid kasb-hunar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	52
Shaxnoza Ibragimova. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning pragmatik aspektlari	53
Mushtariybegim Ismoilova. Halima Ahmad ijodida oyna obrazi	54
Nargizaxon Nurdinbayeva. Bolalarni erkalovchi ayrim so'zlarning lingvomadaniy tahlili	56
Матлюба Мирханова. Теоретические основы культуры речи как дисциплины в системе филологического образования.....	58
Камила Низамова, Илина Сиддикова. Особенности драматургии Н.Коляды	59
Шахло Рашидова. Эволюция фразеологических единиц в произведениях русских классиков	61
Зайтуна Рустомова. Интертекстуальность как форма авторской стратегии в «Глиняных буквах, плывущих яблоках» Сухбата Афлатуни.....	63
Nilufar Rasulova. O'zbek va ingliz tillaridagi akusher-ginekologiyaga oid leksik birliklar tahlili	65
Mohinbonu Usmonova. Komparativ tafakkurni shakllantirish muammolari.....	66
Zebiniso Toshqulova. O'zbek folklor qo'shiqlaridagi "tun" va "tong" dialektikasi tahlili.....	68
Moxlaroy Rejapova. Ingliz tilida shodlik va qayg'u konseptlarining leksik-semantik verbalizatsiyasi.....	69
Sanobarxon Karimova. Roman g'oyasining qutbiylikda ifodalanishi (Rahim Karimovning "Komila" romani asosida).....	72
Elbek Ro'ziyev. "Kodeks Kumanikus"dagi topishmoqlar semantikasiga oid ba'zi mulohazalar.....	75
Alisher Razzoqov. Shoh va faylasuf obrazlarining tasavvufiy talqini.....	76
Feruzaxon Muratkhodjaeva. Inson ruhiyati fenomenologiyasi va uni ifoda etishning lisoniy vositalari.....	79
Muhabbat Bo'riyeva. Sergey Yesenin hikoyalari poetikasi.....	80
Salima Jumayeva. Ikrom Otamurod she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari	82
Komil Marqayev. Totemizm asosida yaralgan etnonimlar.....	84
Maftuna Esanova. Lotin tilidagi tibbiy terminlar klinik ma'nosining ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi	87

Gulnoza Kurbonova, Ruxshona Erkinova. Ava Naoko ijodiyotida tabiatga oid konseptlarning qiyosiy tahlili	89
Baxodirjon Burxonov. Qurilish-arxitektura til birliklarining lingvokognitiv xususiyatlari	91
Salim Doniyorov. The increasing importance of a fundamental change in the activities of traditional media in the realities of covering the process of building a new Uzbekistan	93
Inobat Narziyeva. The importance of family roles and relationships in classic children's stories	95
Nigina Mustafoeva. Countable and uncountable nouns in real-life context	96
Durdonaxon Ganiyeva. The emergence of the anthropocentric paradigm and gender linguistics.....	98
Dilnoza Turdibekova. How generative AI is reshaping academic writing in Uzbekistan and around the world.....	101
Abulqimu (Abdulkhikim Mehmet). Markaziy Osiyo mamlakatlari xalq maqollarining tadqiqi, ilmiy qiymati va amaliy ahamiyati (中亚国家民间谚语研究有学术价值与实践意义)	103
Алина Зиганшина. Специфика литературоведческого анализа современной русской прозы	108

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Dilnoza Axmedova. Xorijiy va milliy asarlar konsepsiyalari asosida til o'rgatish metodikasini takomillashtirish: kommunikativ yondashuv	112
To'xtasin Arslonov. Talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish: tahlil va tavsiyalar	114
Munisa Abduraimova. Tarix fanini o'qitishdagi xatolarni tuzatish usullari	116
Shohida Bazarova. Bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari	118
Азизхон Рахмонов. Формирование профессионально-творческой компетенции будущего учителя русского языка	119
Насиба Ибрагимова, Гузал Абдумаликова. Использование игровых методик (квестов, викторин, соревнований) в обучении английскому языку студентов института физической культуры.....	122
Маржона Аскарова. Обучение предложно-падежным сочетаниям русского языка с использованием мультимедийных технологий (для нерусскоязычных школьников 10–11-х классов)	124
Хосиятхон Джурраева, Динара Файзиева. Изучение видов русского глагола в группах с узбекским языком обучения.....	126
Мохинохон Журазода. Мультидисциплинарные методы на уроках русского языка при формировании когнитивных универсальных учебных действий	129
Кристина Костишина. Применение искусственного интеллекта в преподавании литературы.....	131
Diloram Fattaxova. Ta'lim jarayonida multimediali o'quv kontentlaridan foydalanish.....	133
Nodira Ubayeva. Zamonaviy texnologiyalar davrida talaba va oila o'rtasidagi kommunikatsiya muammolari.....	136
Rahimboy Jumaniyozov. Uzlaksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o'qituvchilarning nutq madaniyati va ma'naviy tarbiyasi pedagogik muammo sifatida.....	138
Shohistaxon Tojiboyeva. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida fake xabarlar va manipulyatsiyaga qarshi kurashda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari	141
Surayyo Qodirova. Fanlararo integratsiya: "MMM–musiq, matn, matematika" texnologiyasidan foydalanish samaradorligi	142
Hamida Ortiqova, Zargul Fayizova. Ona tili ta'limida kognitiv-pragmatik yondashuvning roli.....	144
Shaxnoza Sattorova. Grammatik kompetensiyani takomillashtirishda nemis she'riyatining didaktik imkoniyatlari	146
Mohina Boboqulova. "Uch og'a–ini botirlar" ertagini SWOT tahlili asosida o'rganish: adabiy ta'limda innovatsion metodik yondashuv.....	149
Dilfuza G'aznayeve. Shoir Nodiraning "Eshit" radifli g'azalini o'rganishda maxsus ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	151
Fariza Musayeva. Sketch engine as a critical tool for corpus compilation	152
Maftuna Shonazarova. Radiodiskursda til o'qitishning lingvomadaniy va pragmatik aspekti	157
Oysha Qurbonova. Ona tili ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ta'lim maqsadining mutanosibligini takomillashtirish	159
Shoxista Sayfuddinova. Chet tilini o'qitishda kontrastiv lingvistikaning ahamiyati	161
Nilufar Abdulvokhidova. Tabiiy tilni qayta ishlash va ingliz tilini o'qitishda uning roli.....	163



so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirishi va h.), o'quv topshiriqlarida belgilangan muammoni hal etishi mumkin.

Demak, XXI – axborot asrida ona tili ta'limi oldida turgan asosiy vazifa ona tili darslarida o'quvchilar foydalanishi uchun – ilg'or mamlakatlar ta'lim vositalari sirasida bo'lganidek – ijodiy tafakkur aslahaxonasi – axborot banklarini tuzish va undan keng foydalanishni yo'lga qo'yishdir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish davlat dasturi va siyosati darajasiga ko'tarilganligiga ancha vaqt o'tganligiga qaramay, olim va muallimlarimizning axborot banklarini tuzish va ommalashtirish yo'nalishida hamon sustkashlik qilishayotganliklarini oqlash qiyin. Boy va rang-barang axborot manbalarisiz ona tili ta'limi uchun

mo'ljallangan kognitiv-pragmatik ta'lim usuli mohiyatan yaroqsiz bo'lib qoladi [3: 105].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimi, xususan, ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bu esa an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, ayniqsa, axborot banklari tizimini dars jarayoniga samarali integratsiya qilishni talab etadi. Shunday ekan, XXI asr – axborot asrida ona tili ta'limining asosiy maqsadi bo'lgan ijodiy tafakkur sohibini voyaga yetkazishda axborot banklarini yaratish va ommalashtirish – kechiktirib bo'lmaydigan strategik masaladir.

Foydalanilgan aabiyotlar

1. Abdullayev A.R. Ona tili va adabiyot ta'limining pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Daniyarov A.M. Pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya tizimlari. – Toshkent: Universitet, 2018.
3. Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.

Shaxnoza SATTOROVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

GRAMMATIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHDA NEMIS SHE'RIYATINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis she'riy matnlari asosida filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi talabalarining grammatik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi hamda didaktik va eksperimental metodlar asosida o'quv samaradorligi baholanadi. Maqola she'riyatning til o'rganishdagi o'рни va didaktik imkoniyatlarini yoritib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: grammatik kompetensiya, she'riyat, didaktik metodika, fonetik ko'nikma, o'quv samaradorligi.

Annotation. This article examines the development of grammar competence among students of the Philology and Language teaching program through German poetic texts and evaluates learning effectiveness using didactic and experimental methods. The findings highlight the role of poetry in language learning and its didactic potential.

Keywords: grammar competence, poetry, didactics, phonetic skills, learning effectiveness.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема развития грамматической компетенции студентов направления «Филология и преподавание языков» на основе немецких поэтических текстов, а также оценивается учебная эффективность на основе дидактических и экспериментальных методов. Результаты исследования способствуют раскрытию роли поэзии в изучении языка и её дидактических возможностей.

Ключевые слова: грамматическая компетенция, поэзия, дидактика, фонетические навыки, эффективность обучения.

Zamonaviy til o'qitish jarayonida talabalarning grammatik kompetensiyasini yanada takomillashtirish tilni erkin va to'g'ri qo'llash malakasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun grammatikani faqat nazariy tushunchalar majmuyi sifatida emas, balki hissiy-estetik vosita sifatida ham o'zlashtirish lozim. Xususan, she'riyat orqali grammatika talabalarga yanada ta'sirchan va ongli tarzda yetkaziladi, yoshlar esa grammatik birliklarni yod olishi, ularni hayotiy kontekstda tushunishi va eslab qolishi oson bo'ladi. Innovatsiyalar ta'lim sohasi uchun ham zarur. Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturda umumiy Yevropa standartlari bo'yicha filologiya yo'nalishidagi bakalavr talabalari C1 darajasiga ega bo'lishlari kerakligi ko'rsatilgan. Bu, o'z navbatida, xorijiy tillarni o'qitishda eng yangi va samarali usullardan foydalanish kerakligini anglatadi.

"Grammatika" atamasi, ikkita bir-biridan keskin farq qiladigan tushunchalarni ifodalaydi: 1) tillarni sistemada psixologiya tilida o'rganadigan sof nazariy bilimlar

majmuyi, tafakkur jarayoni va mahsuli, yanada aniqroq aytganda tilning grammatik faktlari, birliklari, hodisalari v.b; ular asosida mavhumlashtirilgan tushuncha, qoida, kategoriya, nazariy umumlashma kabilar yig'indisi; 2) u yoki bu tildagi nutqning grammatik jihati (leksika va talaffuz qatorida o'rgatiladi); metodikada uni nutqning grammatik ko'nikmasi deb ham yuritishadi. J.J.Jalolov "Chet tilini o'qitish metodikasi" kitobida "Chet tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani rivojlantirish bu – faqat qoidalarni yod olish emas, balki til birliklarini nutqiy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish malakasini shakllantirishdir" [1: 112]– deya ta'kidlaydi.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida chet tilini o'qitish nazariyasi va amaliyotida muayyan darajada kommunikativ metod alohida ahamiyat kasb etdi va bunda professor E.I.Passov ilk qarashlarini ilgari surdi. Lekin grammatikani 60–70-yillarda yaratilgan puxta lingvometodik tadqiqotlar (V.S.Setlin, I.M.Berman, S.F.Shatilov, M.M.Goxlerner) asosida

o'rgatish mumkin edi. Chunki o'sha davr metodikasida ilgari surilgan g'oyalar chet til grammatikasini amaliy o'rganishga qaratilgandi. Kommunikativ metod namoyandalari ham nutqiy malakalarni singdirish birlamchi vazifa ekanini e'tirof etadilar [2: 54].

She'riy asarlarning til o'rganishdagi o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, u o'zining maxsus til tuzilmasi, uslubi va figurativ ifodalari orqali talabalar tilini boyitishda, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita. S.Shulman "She'riyat va til" asarida she'riyatning tilni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [3: 112]. U she'riyatning tilni ifodalash, obrazlar yaratish va til boyligini kengaytirishga qaratilgan metodlarni ishlab chiqadi. N.Krylov esa she'riyatning o'rganish jarayonidagi o'rni va grammatik kompetensiyani takomillashtirishdagi roli haqida fikr bildiradi [4: 65]. She'riyatning ritm, ohang, so'zlarning figurativ ishlatilishi, tilni o'rganishda talabalar uchun katta foyda keltirishi mumkin. She'riyat – estetik tafakkurning yuksak namunasi. Uning obrazlilik, mazmuniy qatlamlilik va ritmik tuzilish jihatlari orqali til boyligi, grammatik shakllarning estetik ishlatilishi yaqqol namoyon bo'ladi [5: 148]. She'riy matnlardan foydalanish chet tilini o'qitishning samarali vositalaridan biri bo'lib, u o'qish paytida kelajakdagi tilshunos muallifning o'z fikrini yetkazish uchun til vositalaridan ongli ravishda foydalana olishini inobatga oladi hamda chet tilidagi nutqda tilning ishlash jihatlari, turlari bilan tanishadi. O'quvchilarni chet tilida mustaqil fikrlashga o'rgatish, tilning strukturasini va mazmunini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga undash – chet tilini o'rgatishning bosh maqsadidir [6: 116].

Ma'lumki, xorijiy til ona tili singari 4 ta funksiyani bajaradi: bilish vositasi bo'lib xizmat qiladi; milliy madaniyatning saqlovchisi, aloqa va dunyoga munosabatni ifoda etish vositasi; rivojlanish va tarbiya vositasi sifatida ishlaydi. Aynan badiiy adabiyot, jumladan, she'riy matnlar bilan ishlash o'rganilayotgan til mamlakatida nutq xulq-atvorining milliy-madaniy xususiyatlarini o'zlashtirishga, talabalar o'rtasida boshqa jamiyat zamonaviy hayotining turli sohalari, tarixi va madaniyati to'g'risida tasavvurni shakllantirishga yordam beradi [7: 209–211].

She'riy matnlardan ta'limning yetakchi maqsadlariga erishish va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy, haqiqiy so'zlashuv va adabiy nutqning namunasi sifatida foydalanish mumkin. Nemis mumtoz adabiyoti namunalariidan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan talabalarining aqliy faoliyatini rag'batlantirishi va ularning motivatsiyasini rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak bo'lgan to'g'ri tashkil etilgan ishlarga bog'liq [8: 23]. O'qitish uchun nemis she'riy matnlaridan eng xarakterli va muhimi, talabalar bilim darajasiga mos hamda o'quv dasturida keltirilganlarini tanlash muhim ahamiyatga ega va bu o'z navbatida, universitetda o'qitishning va mutaxassislikning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili) ta'lim yo'nalishi o'quv dasturida *amaliy fonetika* moduli bo'yicha bir qancha she'riy asarlar berilgan bo'lib, ushbu fan doirasida adabiy matnlar, xususan, she'riy asarlardan foydalanish talabalarining nafaqat talaffuz va intonatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ularning grammatik kompetensiyasini mustahkamlash, balki grammatik tahlil qilish, zamonlar va gap tuzilmalari bo'yicha chuqurroq tushunchaga

ega bo'lishlari mumkin. Bularga Friedrich Schillerning "Der Handschuh", Heinrich Heinening "Ein Fichtenbaum, Lorelei, Besuch auf dem Brocken", Johann Wolfgang von Goethening "Meeresstille, Gefunden, Heidenröslein", Eduard Mörikening "Er ist's Vaterunser", Anastasius Grünning "Zwei Wanderer", Joseph Eichendorfnig "Das zerbrochene Ringlein", Günter Grassning "Kinderlied", Theodor Stormning "Die Nachtigall" asarlarini keltirishimiz mumkin:

Grammatik kompetensiyani fonetika bilan integratsiyalab rivojlantirishda eng samarali o'rganish imkoniyatini taqdim etadigan she'r sifatida F.Schillerning "Der Handschuh" asarini ajratib aytish mumkin. She'r dialogik shaklda yozilgan bo'lib, u orqali gap tuzilmalari, zamonlar, modal fe'llar va ohang (intonatsiya) o'rganilishi mumkin. She'r dramatik tusdagi she'r bo'lgani uchun talaffuz va urg'u mashqlarini ham samarali tashkil etish imkonini beradi. Bundan tashqari, undagi archaik leksika va murakkab grammatik konstruksiyalar grammatika tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlashga xizmat qiladi:

*Vor seinem Löwengarten,
Das Kampfspiel zu erwarten,
Saß König Franz,
Und um ihn die Großen der Krone,
Und rings auf hohem Balkone
Die Damen in schönem Kranz.*

She'riy matnlarning til o'rganishda samarali vosita sifatida qo'llanilishining yana bir muhim jihati shundaki, u talaffuz va intonatsiyani rivojlantirishga ham yordam beradi. She'riy asarlar o'qish, tinglash va tushunish orqali talaba so'zlar orasidagi ritm, urg'u va intonatsiyani farqlashni o'rganadi. Bu jarayon tilni to'g'ri va aniq ishlatishda talabalarga katta yordam beradi. Aksariyat she'riy asarlar ritmik va melodik tuzilishga ega, bu o'rganilayotgan tilning grammatik strukturasini chuqurroq anglashda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Fonetik tahlil topshiriqlari sifatida intonatsiyani o'rganishga qaratilgan topshiriqlar, jumladan, she'rning birinchi baytini ifodali o'qish, s va r kabi undosh tovushlarning takrorlanishini aniqlash va ohangdagi rolini muhokama qilish, so'z ohangi o'zgarishini hamda talaffuzda urg'ular tushinishini aniqlash, she'rdagi ichki ritmni topish kabilari berilishi mumkin. Alliteratsiya usuli so'zlarning bir xil tovushda takrorlanishi she'rda o'ziga xos ritm yaratadi va bu ritmik tuzilish talabalarga so'zlarni yodlash va talaffuz qilishda yordam beradi. Paronomaziya usuli o'xshash tovushli so'zlarni qo'llash orqali she'rda o'ziga xos ma'no beradi. Bu usul talabalarga so'zlarni eslab qolish da yordam beradi va ular orasidagi farqlarni tushunishga imkon yaratadi.

Grammatik tahlil topshiriqlari sifatida fe'l zamonini aniqlash ("saß", "erwarten"), murakkab tuzilmadagi gapni sodda gapga ajratish ("Vor seinem Löwengarten, das Kampfspiel zu erwarten, saß König Franz"), predloglarni izohlash ("vor", "um", "auf"), nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash, nutqiy faoliyatda grammatik birliklarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish kabilarni keltirish mumkin. Ilg'or pedagogik tajribalar tahlili hamda taniqli olimlar A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqalarning pedagogik faoliyatini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin: aynan talabalar bilan o'qituvchi muloqotining pedagogik ta'sir vositasini beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta'lim-



tarbiya jarayonining samaradorligini har tomonlama oshirishni ta'minlaydi.

Didaktik tahlil metodologiyasi she'riyat asosidagi o'qitish metodlarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Bu metod o'qitishning qanday qilib talabalarga yangi leksik birliklarni o'rgatishda yordam berish, yodlash jarayonida qanday usullardan foydalanishlarini aniqlashga imkon beradi. She'riyatni o'qitish jarayonida talabalar uchun o'quv materiallarini ishlab chiqish, ularga she'riy asarlardan namunalar berish va bu asarlarni tahlil qilish o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonini sezilarli darajada oshiradi. O'qituvchi she'rlarni talqin qilish orqali talabalar bilan suhbatlar o'tkazadi, so'z va iboralarni, ularning ma'nolarini muhokama qiladi. Bu jarayonda ularga so'zlarning to'g'ri ishlatilishiga oid ko'rsatma va tavsiyalar beriladi. Didaktik tahlilning yana bir muhim jihati shundaki, talabalar odatda grammatik qoidalarni o'rganish davomida zerikishadi, ba'zan esa tushunishga qiyinalishadi. Shu sababli ushbu jarayonda she'riyat orqali talabalarining qiziqishi va motivatsiyasini oshirish mumkin. She'riy asarlarni o'rganish ko'pincha talabalarni ilhomlantiradi, ular orasida til o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantiradi. She'riy asarlarni audiovizual materiallar bilan birgalikda tinglatish va ko'rish talabalarga so'zlarni to'g'ri ishlatishni o'rgatishda samarali metod. Bu orqali ularning grammatik kompetensiyasi ham samarali rivojlantiriladi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi she'riy asarlardan foydalanishda grammatik kompetensiyani takomillashtirishning samarali usullarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, grammatik va didaktik tahlil, eksperimental o'qitish metodlari orqali she'riyatning til o'rganish jarayonidagi o'rnini aniqlandi. She'riyatni o'rganish, nafaqat yangi so'zlarni o'rganish, balki talabalar uchun tilning estetik va madaniy jihatlarini tushunish imkoniyatini yaratadi. O'qitishda qo'llaniladigan didaktik yondashuvlar ular uchun muhim o'quv jarayonlarini tashkil etadi. She'riy asarlardan foydalanish, didaktik yondashuvlarning yangilanishi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashishi o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qilishga imkon beradi [9]. O'qituvchilar she'rlarni guruhlariga mos ravishda tanlab, ular bilan turli xil didaktik vazifalarni bajaradilar.

Birinchi o'rinda, didaktik yondashuvlar talabalarining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. She'riyatni talabalarining har biri o'ziga xos tarzda o'rganadi va so'zlarni o'z qobiliyatlariga qarab eslab qoladi. Shuning uchun o'qituvchi she'r tanlashda bola uchun qiyin bo'lmagan, ammo yangi so'z va iboralar taqdim etadigan asarlarni tanlashi muhimdir. Bu orqali o'quvchilar yangi leksik birliklarni

o'rganish, ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Didaktik yondashuvlar, shuningdek, she'riyatning til o'rganishdagi motivatsion rolini ham rivojlantiradi. She'riy o'rganish jarayonida talabaga o'z fikrini ifodalashda yordam beradigan metodlar kiritilishi kerak. O'quvchilarga she'riy yodlash, tahlil etish, tarjima qilish va undan yangi iboralar ishlab chiqishda yordam beradigan faoliyatlar orasida leksik boyligini kengaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalarning o'quv jarayoniga qaratilishi she'riyatni o'rganishning samaradorligini oshiradi. Internet va raqamli vositalar she'riy asarlarning yanada kengroq va samarali o'rganilishiga imkon beradi. Talabalar onlayn kutubxonalardan, audio va video materiallardan foydalanib she'riy asarlarni tahlil qilishlari va o'rganishlari mumkin. Bu texnologiyalar yordamida ularga she'riyatning turli xil janrlari, uslub va mavzulari haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Interaktiv platformalarda she'riy asarlar bilan ishlash talabalar uchun osonlashtirilgan o'quv materiallarini yaratish imkonini beradi.

Tadqiqotimizning eksperimental qismi she'riy asarlarning grammatik kompetensiyaga bo'lgan ta'sirini aniq o'lchashga yo'naltirilgan. bo'lib, eksperimentlar o'tkazish orqali she'riy matnlarning til o'rganishdagi samaradorligi o'lchanadi. Eksperimentda talabalar guruhlarida turli metodika va texnologiyalar bilan ishlaydilar. Bir guruhga she'riyat an'anaviy usullar bilan o'rgatiladi, ikkinchi guruhga esa zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida. Shuningdek, eksperimentda talabalar o'rgangan so'z va iboralarining yodlanish tezligi, nutqda iqo'llanilishi ko'rsatiladi.

Natijalar she'riyatning grammatik kompetensiyani oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi, chunki she'riyat nafaqat so'zlarni o'rganishga yordam beradi, balki talabalarni lingvistik va madaniy jihatdan boyitadi. Eksperimentlar natijalari shuni ko'rsatdiki, she'riyat asosidagi o'qitish yoshlarda yangi so'zlarni o'rganishga, grammatik qoidalarni bevosita eslab qolishga va tushunishga, ularni aniq va to'g'ri ishlatishga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, grammatik kompetensiyani shakllantirishda she'riy matnlarning didaktik imkoniyatlari faqatgina til tuzilmasini o'rgatish bilan cheklanmay, talabalarni mustaqil fikrlashga, til vositalarining estetik qiymatini his etishga, madaniyatlararo kommunikatsiya asoslarini anglashga undaydi. Ushbu jihatlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida nemis tilini o'qitish metodikasiga yangicha nazar bilan qarashni, ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
2. Jasova M. Arbeit mit literarischen Texten im DaF Unterricht am Beispiel eines Textes von Christine Nöstlinger. – Brunn, 2009.
3. Neuer Gerhard a Hans Hunfeld.: Methoden des fremdsprachlichen Unterrichts: Eine Einführung. – Berlin: Druckhaus Langenscheidt. 1997, S. 33–37. ISBN 3468496761.
4. König H. Literaturdidaktik im DaF-Unterricht: Theoretische und praktische Perspektiven. In: Zeitschrift für Deutsch als Fremdsprache, 52(2), 2015.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2021.
6. Тассову Э.У. Основы методики обучения иностранным языкам. – Москва, 2019.
7. Chang N.F. Towards a better general theory of equivalent effect. №42, pp.1–17. – Babel, 2016.
8. Rogova G.V., Rabinovich F.M., Sakharova T.E. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – Москва: Просвещение, 2021.
9. Kyslouskova H. Jak využit literární text ve výuce cizích jazyků. – Borno: Masarykova Univerzita, 2007. ISBN 9788021043732.